

TAQIQLANGAN EKINLAR TUSHUNCHASI, ULARNING TURLARI VA XUSUSIYATI

Jasurbek Do'smatov Umidjon o'g'li

Adliya vazirligi qoshidagi

Yuristlar malakasini oshirish markazi

Bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Hozirgi davrda giyohvandlikka qarshi kurash global, umumbashariy ahamiyat kasb etmoqda, chunki giyohvandlik muammosi hududiy, milliy, diniy yoki jinsiy chegaralarni bilmaydi va borgan sari ushbu moddalar bilan bog'liq jinoyatlar soni va ko'lami kengayib bormoqda. Turli xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra ikki yuz milliondan oshiq kishi turli giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste'mol qiladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra har yili Afg'onistondan 900 tonna opiy va 375 tonna heroin olib chiqiladi¹.

Jahonda giyohvandlik vositalarining bir yillik g'ayriqonuniy muomalasidan topilgan mablag'lar 400 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi². Giyohvandlik vositalarini yetishtirish jinoyatlarining ijtimoiy xavfliligi va jamiyatga yetkaziladigan zarar nafaqat giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan muomala qilishning qonuniy tartibini buzadi, balki fuqarolarning sog'ligini muhofaza qilish va davlat xavfsizligini ta'minlashga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Giyohvandlik va unga qarshi kurash nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahon miqyosida juda katta muammo bo'lib qolmoqda. Bu ijtimoiy kasalikka qarshi kompleks ravishda choralar ko'rilayotganligi, unga qarshi fan va yutuqlaridan foydalanilayotganligiga qaramay, hozirgacha ko'zlangan maqsadga erishilmadi.³

¹ www.unstatistics.com

² <https://groups.oist.jp/resource-center.jp>

³ Qurbonov A., Abdurahmonov A. Giyohvandlikka qarshi kurashning xorij tajribasi. – Toshkent, 2002.

Ushbu maqolada taqiqlangan ekinlar tushunchasi, ularning turlari va xususiyati yoritib beriladi.

Kalit soʻzlar: psixotrop moddalar, prekursorlar, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari, preparat, giyohvandlik (narkomaniya).

Kirish qism

Ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish uchun avvalo giyohvandlik vositalari haqida batafsil tushunchaga ega boʻlish lozim. Chunki, giyohvandlik, bangilik, giyohvandlik vositalari, narkotik moddalar, prekursorlar, narkomaniya, narkomafiya, narkobiznes kabi tushunchalarning maʼnosini aniq bilish giyohvandlik vositalarining gʻayriqonuniy muomalasi bilan bogʻlik jinoyatlarni toʻgʻri kvalifikatsiya qilish, ushbu qilmishlarga qarshi kurashning adekvat chora-tadbirlari ishlab chiqish imkonini beradi.

Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasida giyohvandlik vositalari sifatida maxsus roʻyxatga kiritilgan va davlat tomonidan nazoratga olingan, giyohvandlikni keltirib chiqaruvchi sintetik vosita (preparat) va oʻsimliklar koʻrsatilgan⁴.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatida giyohvandlik nasha, koʻknor va boshqa narkotik moddalar isteʼmol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati, bangilik⁵ deb izoh berilgan. Oʻzbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar toʻgʻrisida”gi qonunida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tushunchasi, ular bilan muomala qilishning huquqiy asoslari mustahkamlab qoʻyilgan.

Ushbu qonunning 3-moddasida: giyohvandlik (narkotik) vositalari – giyohvandlik vositalari roʻyxatiga kiritilgan va Oʻzbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar, tarkibida giyohvandlik moddasi boʻlgan preparatlar va oʻsimliklar:

⁴ Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi 3-jild.

⁵ Oʻzbek tilining izohli lugʻati: 80000 dan ortiq soʻz va iboralar birlashmasi. 1-jild.

psixotrop moddalar - psixotrop moddalar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

prekursorlar-prekursorlar ro'yxatiga kiritilgan va O'zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tayyorlash uchun foydalaniladigan moddalar;

giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning analoglari-kimyoviy tuzilishi va xossalariga ko'ra giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga o'xshash, ular singari ruhiyatga faol ta'sir etuvchi, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar;

preparat-moddalarning har qanday fizik holatdagi, tarkibida yoki bir nechta giyohvandlik vositalari yoxud psixotrop moddalar bo'lgan aralashmasi; giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), tranzit tarzida o'tqazish, saqlash, berish, realizatsiya qilish, taqsimlash, olish, tashish, jo'natish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tayyorlash, ulardan foydalanish va ularni yo'q qilish, shuningdek, tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklarni yetishtirish;

giyohvandlik (narkomaniya)-giyohvandlik vositalariga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik;

zaharvandlik (toksikomaniya) psixotrop moddalarga, shuningdek, dorilik xususiyatiga ega bo'lmagan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy,giyohvandlik vositalariga o'xshash ruhiyatga faol ta'sir etuvchi moddalarga ruxiy jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallik⁶, deb ta'rif berilgan.

Giyohvandlik vositalari deganda, tibbiyotda davolash maqsadida og'riqdan forig' qilish yoki uxlatadigan, shuningdek, o'simlik tarkibidan olinadigan yoki sun'iy tarzda tayyorlanadigan,kishiga aqldan ozish yoki vaqtinchalik o'ta vaqtichog'likni uyg'otadigan vositalar tushuniladi².

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni. ² Norboev A.Giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish usullari-Toshkent,2002.

O‘zbekiston Respublikasida muomalada bo‘lishi taqiqlangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Narkotik moddalarni nazorat qilish davlat komissiyasining 2010-yil 6-apreldagi qarorida berilgan. Ushbu qarorga ilova sifatida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning uncha ko‘p bo‘lmagan, ancha va ko‘p miqdorlari ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 31-iyuldagi “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali olib kirish, olib chiqish va tranzit shaklida o‘tkazish to‘g‘risida” gi 293-sonli Qarorining 2-, 3-, 4- va 5- ilovalarida belgilangan.

1999-yil 19-avgustdagi qonunning 4-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar quyidagi ro‘yxatlarga kiritiladi:

- 1) muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida taqiqlangan giyohvandlik vositalari ro‘yxati;
- 2) muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida cheklangan giyohvandlik vositalari ro‘yxati;
- 3) muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida cheklangan psixotrop moddalar ro‘yxati;
- 4) muomalada bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasida cheklanga prekursorlar ro‘yxati.

Barcha giyohvandlik vositalari ular uchun umumiy bo‘lgan tibbiy na yuridik belgilarga ega⁷. Kelib chiqishi tabiiy yoki sun‘iy bo‘lgan moddatda ruhiy jismoniy qaramlikni, ko‘p karra iste‘mol qilganda esa giyohvandlik kasalligini keltirib

⁷ Abduqodirov Sh., Payzullayev Q. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalardan foydalanishning huquqiy tartibga solinishi. – Toshkent. 2002.

chiqarishga qodir bo'lgan muayyan xossalarning mavjudligi ushbu vositalarning tibbiy belgisi hisoblanadi.

Afsuski, har xil kimyoviy tabiatga ega bo'lgan moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq kasalliklarni ta'riflashda tibbiy adabiyotlarda qo'llaniladigan atamalarga hali mukammal sharh berilmagan. Giyohvandlik Markaziy nerv sistemasiga ta'sir ko'rsatadigan ayrim zaharli va farmakologik vositalardan notibbiy maqsadlarda foydalanish natijasida vujudga keladi.

Asosiy qism

“Giyohvandlik” va “zaharvandlik” (“toksikomaniya”) atamaları ko'pincha mazmunan bir atamalar sifatida qo'llaniladi: “zaharvandlik” (giyohvandlik) - tabiiy yoki sintetik moddalar (dori preparatlari, ovqatdagi va ishlab chiqarilgan zaharlarni iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan vaqtinchalik yoki surunkali intoksikatsiya holatidir. Ruhiy-jismoniy qaramlikka sabab bo'ladigan, giyohvandlik vositalariga kirmaydigan moddalardan (barbitur kislota moddalari, trankvilizatorlar) foydalanish holatlari ko'payganligi tufayli, bir qancha psixiatrlar va narkologlar “giyohvandlik” atamasini qamrov doirasi kengroq bo'lgan “zaharvandlik” va “dori-darmonlarga qaramlik, dori-darmonlarni suiistemol qilish” atamaları bilan almashtirishni taklif qildilar⁸. Ayrim mualliflarning fikricha, zaharvandlik dori-darmonlar va boshqa shunga o'xshash moddalarga ruhiy-jismoniy qaramlik bilan bog'liq kasallikdir.

Ushbu ta'riflar asosida o'rganish orqali shaxsda iste'mol qilinishi natijasida ruhiy jismoniy qaramlikni keltirib chiqaradigan moddalarning bir necha turini qayd etishimiz mumkin.

- morfin hamda morfinga o'xshash ta'sir ko'rsatadigan boshqa moddalar;
- barbituratlar va boshqa uyqu dorilari;
- hind ko'knorisidan olinadigan moddalar(nasha);

⁸ Qurbonov A., Abdurahmonov A. Giyohvandlikka qarshi kurashning xorij tajribasi. – Toshkent, 2002

-markaziy asab tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi moddalar.

Zaxarvandlikning har xil shakllari ikki omilga asoslanadi: Zaxarvandning giyohvandlik vositasiga qaram bo'lib qolishi va abstinent sindromning mavjudligi⁹. Eyforiya holatini keltirib chiqaradigan vositalarga qaramlik umumlashtiruvchi "giyohvandlik" atamasi bilan belgilanadi¹⁰. Bunday holatga xos bo'lgan belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

-muayyan giyohvandlik vositasining ta'siriga organizm ta'sirchanligining o'zgarish sindromi (himoya reaksiyalari, tolerantlik, iste'mol qilish shakli, mastlik shakli);

-ruhiy qaramlik sindromi (obessin mayl, intoksikatsiyadan ruhiy lazzat olish);

-jismoniy qaramlik sindromi (kompulsiv mayl, doza ustidan nazoratni o'qotish, abstinent sindrom, intoksikatsiyadan jismoniy lazzat olish).

Yuridik va tibbiyotga oid adabiyotlarda giyohvandlik vositasiga bir xil ta'rif berilmaydi. M.M.Qodirov giyohvandlik vositalarning to'rtinchi alomati (jismoniy) ham mavjud deb hisoblaydi va giyohvandlik vositalarini kelib chiqish tabiatiga ko'ra har xil vositalar (moddalar), deb ta'riflaydi.

S.P.Dadovskaya giyohvandlik vositalari tushunchasini ikkita mazmuniy va rasmiy huquqiy me'zonlar bilan belgilaydi. Mazmuniy me'zon nuqtai nazaridan, giyohvandlik vositalari - bu iste'mol qilinganida eyforiya holatini, muntazam iste'mol qilinganida esa - giyohvandlik vositasiga ruhiy va jismoniy bog'liqlik (giyohvandlik)ni keltirib chiqarishga qodir bo'lgan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy bo'lgan moddalardir. Rasmiy huquqiy me'zon esa muayyan giyohvandlik vositalarining xalqaro huquqiy yoki davlatning normativ xususiyatga ega bo'lgan ichki qonunlarida, rasmiy ro'yxatlarda ko'rsatilganlari yig'indisidan iboratdir. Yuqoridagi mezonlar mavjud bo'lmasa u yoki bu vositaning giyohvandlik vositasi, deb topilishi mumkin emas. Mazmuniy me'zon-u yoki bu moddaning giyohvandlik vositalari ro'yxatiga

⁹ Ahmedova S.T. Yoshlar orasida giyohvandlik tarqalishining oldini olish muammolari. 1995.

¹⁰ Qurbonov A., Abdurahmonov A. Giyohvandlikka qarshi kurashning xorij tajribasi. - Toshkent, 2002

kiritilishi uchun, rasmiy-huquqiy me'zon esa tadqiq etilayotgan sohada qonunlar ijrosini amalga oshiruvchi organlar uchun mo'ljal bo'lib xizmat qiladi.

Bir qator mualliflar giyohvandlik vositasi atamasi o'z mazmuniga ko'ra "giyohvandlik moddasi" tushunchasi bilan bir xil, shuning uchun ham "giyohvandlik moddalari" atamasini qonunda "giyohvandlik vositalari" atamalari bilan almashtirishga hojat yo'q¹¹, deb hisoblaydilar.

Bu atamalarning o'xshashligini inkor etmagan holda, biz ushbu o'zgartirish mutlaqo to'g'ri bo'lgan, deb hisoblaymiz, chunki modda tushunchasi giyohvandlik predmeti deb topilan predmetlarga ham, xalqaro konvensiyalarda keltirilgan ro'yxatlarga ham mos kelmaydi, chunki faqat moddalargina emas, suyukliklar, o'simliklar yoki bu o'simliklarning qismlari va dori-darmonlar ham giyohvandlik predmetini tashkil etishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonunining nomida ham giyohvandlik vositalari, deb to'g'ri berilgan.

"Vositalar" atamasi ashyolarining amalda mavjud bo'lgan holatini nisbatan aniq va to'liq ifodalaydi. Shuning uchun ham bu atamaning qonun tiliga kiritilishi juda asosidir. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi JK 270-276 moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning predmeti haqida gapirilganida, "giyohvandlik vositasi" atamasini qo'llash to'g'riroq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Narkotizm, tibbiy nuqtai nazardan, giyohvandlik vositalarining eyforiya holatiga keltiradigan ta'siri natijasida kelib chiqadiki, bunday ta'sirga alkogolli ichimliklar va barbituratlar ham egadir. Muayyan moddalar yoki dori preparatlariga qaramlik bilan bog'liq kasallikka chalingan shaxslar giyohvandlar va zaharvandlarga ajratiladilar, chunki, "giyohvandlik", "giyohvandlik vositasi" atamalari hozirgi vaqtda nafaqat tibbiyot xodimlari, balki sotsiologlar, huquqshunoslar tomonidan ijtimoiy va yuridik ma'noda qo'llanilmoqda.

¹¹ Казиров М.М. Проблемы угоститоровской борьбы с изванным оборотом

Shu nuqtai nazardan, fikrimizcha, “giyohvandlik” atamasi faqat qonunga binoan giyohvandlik vositalari sifatida tan olingan moddalar yoki dorilar suiiste’mol qilingan hollardagina qo’llanilishi lozim, “zaharvandlik” atamasi esa giyohvandlik vositalari ro’yxatiga kiritilmagan moddalar yoki dorilarni suiiste’mol qilish natijasida kelib chiqqan kasallik sifatida ta’riflash uchun qo’llanishi mumkin. Tibbiyotda tegishli vosita giyohvandlik vositasi sifatida tan olinganligi yoki giyohvandlik vositalari ro’yxatidan chiqarilganligiga qarab, “giyohvandlik” va “zaharvandlik” diagnozlarini o’zgartirish imkoniyati nazarda tutilgan. Bunda kasallikning klinik holati o’zgarishsiz qolishi mumkin. Shunday qilib, giyohvandlik va zaharvandlikni farqlash mezonlari qaramlikni keltirib chiqaradigan vositaning tibbiy belgilariga asosan aniqlanadi, desak xato qilmagan bo’lamiz.

Markaziy asab tizimiga, bosh miyaga o’ziga xos tarzda ta’sir ko’rsatadigan, ko’p karra iste’mol qilinganida giyohvandlik kasalligini keltirib chiqarishi mumkin bo’lgan va shu sababli giyohvandliklik vositalari ro’yxatiga kiritilgan, kelib chiqishi sintetik yoki tabiiy moddalar giyohvandlik vositalari hisoblanadi.

Mazkur vositalardan notibbiy maqsadlarda foydalanish ko’lamining kengayishi tufayli giyohvandlik vositalariga qaramlik ijtimoiy ahamiyat kasb etib bormoqda¹². Giyohvandlik tarqalishining eng xavfli jihati shundaki, u odamlar sog’ligiga katta shikast yetkazadi. Barcha giyohvandlik vositalari o’z tabiatiga ko’ra o’ta zaharli bo’lib, ularni iste’mol qilish organizmning barcha himoya funksiyalariga shikast yetishiga olib keladi. Giyohvandlik vositalarini surunkali iste’mol qilishning dastlabki bosqichlaridayoq barcha turdagi modda (oqsil, yod, uglevod) almashinuv jarayonlari buziladi.

Giyohvandlik

vositalarining zararli ta’siri natijasida markaziy nerv sistemasi o’zining tartibga solish, muvofiqlashtirish funksiyasini samarali bajarmay qo’yadi. Biroq, eng xavfli oqibat-qon tarkibi o’zgaradi, organizmning immun-himoya funksiyalari pasayadi. Giyohvandlarga eng og’ir yuqumli kasalliklardan biri-OITS (orttirilgan immunitet

¹² Ahmedova S.T. Yoshlar orasida giyohvandlik tarqalishining oldini olish muammolari. 1995

tanqisligi sindromi)ning potentsial tarqatuvchisi sifatida qaralishi aynan shu bilan izohlanadi.

Giyohvandlik tushunchasining tibbiy va ijtimoiy-huquqiy jihatlarini farqlash zarurligi haqidagi fikrlariga qo'shilgan holda, "giyohvandlik" atamasi jinoyathuquqiy ma'noda giyohvandlik vositalari bilan bog'liq g'ayriqonuniy xatti-harakatlar umumiy tushunchasini ifodalash uchun qo'llaniladi deb hisoblaymiz. Shu bois biz giyohvandlik tushunchasiga K.SH.Kurmanov bergan quyidagi ta'rifga qo'shilamiz: "Giyohvandlik vositalarining g'ayriqonuniy muomalasi odamlar sog'ligiga zarar yetkazishga qaratilgan o'z g'ayriqonuniy, g'ayriijtimoiy niyatlarini amalga oshirish maqsadida qonunda jinoiy javobgarlik belgilab qo'yilgan giyohvandlik vositalari bilan bog'liq ijtimoiy xavfli jinoiy qilmishlar sodir etishdir. Xalqaro miqyosda muayyan moddalar va vositalarni giyohvandlik vositalari qatoriga kiritishga Birlashgan Millatlar Tashkiloti, milliy miqyosda esa milliy hukumatning vakolatli organi haqlidir. O'zbekiston Respublikasida markaziy asab sistemasiga, bosh miyaga o'ziga xos tarzda ta'sir kursatadigan, ko'p marta iste'mol qilinganida giyohvandlik kasalligini keltirib chikarishi mumkin bo'lgan, kelib chiqishi sun'iy yoki tabiiy vositalarni giyohvandlik vositalari ro'yxatiga kiritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatiga kiradi.

O'zR Oliy sudi Plenumining 1995-yil 27-oktyabrdagi "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyatlar ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 21-sonli qaroriga muvofiq, bunday moddalar ro'yxati BMTning 1988-yildagi "Giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyasining 1 va 2-jadvallarida hamda 2010-yil 6-apreldagi giyohvandlik vositalari ustidan nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat komissiyasining qaroriga ilovada mavjud¹³.

¹³ O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami : 1991-2006.1-jild.

² O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni.

Хулоса

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, giyohvandlik vositalari jinoyat huquqi nuqtai nazaridan ahamiyatga molikdir. Ayni vaqtda, qonun chiqaruvchi organ tomonidan javobgarlikni differentsiatsiyalashda giyohvandlik vositalari odam organizmiga har xil ta'sir ko'rsatishi hisobga olinadi.

Tarkibida giyohvandlik vositasi bo'lgan o'simliklar bilan bog'liq g'ayriqonuniy xatti-harakatlar uchun javobgarlikning diferentsiatsiya qilinishi e'tiborga olinishidan dalolat beradi. Bunday jinoyatlarning predmetini ta'siri turlicha tarkibida giyohvandlik vositasi bo'lgan o'simliklar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, tarkibida giyohvandlik vositalari bo'lgan o'simliklarni yetishtirish davlat monopoliyasiga kirib (7-modda), maxsus vakolatli organ belgilagan tartibda bu faoliyat ilmiy maqsadlarda shug'ullanishga litsenziya bo'lgan taqdirda davlat korxonalariga ruhsat etiladi (21-modda). Taqiqlangan ekinlarni yetishtirish yoki ekish bunday o'simliklarni yetishtirish maxsus ruxsat (litsenziya) bilan amalga taqdirda jinoiy javobgarlik istisno etiladi. Tarkibida giyohvandlik moddasi bo'lgan o'simliklar o'stirish bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda litsenziat zimmasiga faoliyatni qat'iy tartibda litsenziya talablari va shartlariga rioya qilgan holda amalga oshirish majburiyati yuklanadi². Taqiqlangan o'simliklarni ekish va o'stirtirish kelgusida giyohvandlik vositalarini o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, shuningdek, o'tkazish yoki sotish bilan bog'liq bo'lsa, bunday harakatlar JK 270-moddasi va JK 273-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar majmui bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak³.

Shunday qilib, giyohvandlik vositalari miqdorini to'g'ri aniqlash jazo tayinlashda muhim ahamiyatga ega, chunki bu qo'llaniladigan javobgarlik choralari differentsiatsiyasida muhim rol o'ynaydi.

³ O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami : 1991-2006.1-jild.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami : 1991-2006.1-jild.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni.
- 3.O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami : 1991-2006.1-jild.
- 4.Ahmedova S.T.Yoshlar orasida giyohvandlik tarqalishining oldini olish muammolari.1995
5. Qurbonov A.,Abdurahmonov A. Giyohvandlikka qarshi kurashning xorij tajribasi.–Toshkent,2002
- 6.Ahmedova S.T.Yoshlar orasida giyohvandlik tarqalishining oldini olish muammolari.1995.
- 7.Qurbonov A.,Abdurahmonov A. Giyohvandlikka qarshi kurashning xorij tajribasi.–Toshkent,2002
- 8.Abduqodirov Sh.,Payzullayev Q.Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalardan foydalanishning huquqiy tartibga solinishi.–Toshkent.2002.